+

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.V.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

IBRAGIMOVA FERUZA DAVLETBAYEVNA

TOVUQLAR EYMERIOZI VA KOLIBAKTERIOZINING KIMYOPROFILAKTIKASIDA FENSID SINERGETIK ARALASHMALI PREPARATNING SAMARADORLIGI

03.00.06 - Zoologiya (veterinariya fanlari), 16.00.03 – Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi, mikotoksikologiyasi va immunologiyasi.

VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UDK: 636.5:576.89:576.8:615:615.9

Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по ветеринарным наукам

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.V.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

IBRAGIMOVA FERUZA DAVLETBAYEVNA

TOVUQLAR EYMERIOZI VA KOLIBAKTERIOZINING KIMYOPROFILAKTIKASIDA FENSID SINERGETIK ARALASHMALI PREPARATNING SAMARADORLIGI

03.00.06 – Zoologiya (*veterinariya fanlari*), 16.00.03 – Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi, mikotoksikologiyasi va immunologiyasi.

VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/V102 raqam bilan roʻyxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (oʻzbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ssuv.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:	**Daminov Asadullo Suvonovich** veterinariya fanlari doktori, professor **Mamadullayev Gulmurod Hamidovich** veterinariya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Rasulov Utkir Ilashovich** veterinariya fanlari doktori, dotsent; **Navruzov Nurali Itolmasovich** veterinariya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat tibbiyot universiteti huziridagi L.M.Isayev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy tadqiqot instituti.**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.V.11.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "26" fevral, soat 15⁰⁰ dagi majlisida boʻlib oʻtadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulugʻbek koʻchasi, 77 uy. Tel./faks: (+99855) 707-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14353 raqami bilan roʻyxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulugʻbek koʻchasi, 77-uy. Tel./faks: (+99855) 707-76-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "11" 02 kuni tarqatildi.

(2026-yil «11» 02 dagi № 05 - raqamli reestr bayonnomasi).

X.B.Yunusov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor

K.X.Urokov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, v.f.b.f.d.(PhD)

Q.N.Norboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, v.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida parrandachilikni intensiv rivojlantirish, turli yuqumli, yuqumsiz va parazitar kasalliklarga qarshi kurashish, oldini olish, ekologik toza parranda mahsulotlarini ishlab chiqarish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada Respublikamizda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, parrandachilik xo'jaliklarida tovuqlar va jo'jalarni kolibakterioz bilan kasallanishi 10-30%, eymerioz bilan aralash kechishi natijasida esa o'lim 80-100 foizni tashkil qilishi aniqlangan[1]. Parrandalar organizmida mavjud koksidiyalar orqali tovuqlarning tuxumdan qolishi, yosh parrandalarning o'sish va rivojlanishdan orqada qolishi, go'sht mahsuodorligining pasayishi, shuningdek parranda organizmining turli yuqumli kasalliklarga nisbatan rezistentligining pasayishi, parazitlar yetkazgan mexanik-travmatik jarohatlar orqali «infeksiya darvozasi» ochilishi, parrandalarning nobud bo'lishi oqibatida parrandachilik xo'jaliklarida hamda aholi xonadonlarida iqtisodiy zararning sezilarli darajada ortishiga sabab bo'ladi[2].

Dunyo miqyosida parrandalarning keng tarqalgan parazitar va infeksion kasalliklarining epizootologik va epidemiologik holatini tezkor aniqlash, erta tashxis qo'yish, zamonaviy davolash va profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Parrandalarning aralash eymerioz va kolibakteriozida hududlarning bioekologik holati, tabiiy geografik sharoitlari hamda, kasallangan parrandalar organizmida kechadigan morfologik, gematologik va biokimyoviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish, ushbu kasalliklarga qarshi kurashish va oldini olishning tizimli chora-tadbirlarini ishlab chiqish, kasallikning aralash kechish jarayoniga samarali ta'sir qiluvchi mahalliy o'simlik moddalaridan foydalanib yangi davolash va profilaktika uslublarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda mustaqillik yillarida parrandachilikni jadal rivojlantirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bunda parranda soni va mahsuodorligini ko'paytirish, shuningdek parrandalarning turli xil yuqumli, yuqumsiz va parazitar kasalliklarini oldini olish hamda parrandachilikni rivojlantirishda tizimli tadbirlarni yo'lga qo'yilishiga erishildi. Bu borada parrandalarning parazitar va yuqumli kasalliklarini assotsiatsiyada kechgan vaziyatda, qarshi kurashish va oldini olish uchun kimyoprofilaktika uslub, vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoni, 2021-yil 31-martdagi «Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5017-son va 2021-yil 14-iyundagi «Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq oziqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»[3]gi PQ-5146-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-iyuodagi «Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo'jaliklariga ular tomonidan yetishtirilgan va sotilgan mahsulotlar uchun subsidiya ajratish tartibi to'g'ri-

---

[1] Давлатов Р.Б. Эймериоз кур и его ассоциация с колибактериозам в условиях Узбекистана // Автореф.дисс.докт.вет.наук. - Самарканд, 2008. -С. 18-22.

[2] Oripov A.O. va boshqalar. Veterinariya gelmintologiyasi. // Qo'llanma. Toshkent, 2016. 198-201 b.

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida »gi PQ-5146-sonli Qarori.

sida»gi 434-son qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Parrandalar eymeriozi va kolibakteriozini assotsiativ kechishining klinik belgilari, epizootologik xususiyatlari, biologiyasi, patogenezi, qarshi kurashish chora-tadbirlari va davolashning samarali vositalari, kimyoprofilaktika uslublari bo'yicha ko'pgina xorijiy hamda respublikamiz olimlari tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari, jumladan xorijiy mualliflardan L.Long, B.White, M.Morita, D.Chapman, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan Yu.P.Ilyushechkin, A.I.Yatusevich, N.V.Danilevskaya, A.P.Zabashta, O'zbekistonlik olimlardan I.X.Irgashev, A.R.Djabbarov, D.Ibragimov, T.A.Abdurahmanov, R.B.Davlatov va boshqalar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar o'tkazilgan. Lekin, hozirgi kunda koksidioz va kolibakteriozga qarshi qo'llaniladigan preparatlarga nisbatan kasallik qo'zg'atuvchilarining qisqa muddat ichida adaptasiyaga uchrashi sababli joriy etilayotgan profilaktik va terapevtik tadbirlar yetarlicha samara bermayotganligi kuzatilmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Respublika parrandachilik xo'jaliklarida tovuqlar va jo'jalar orasida keng tarqalgan protozoy kasalliklardan biri bo'lgan eymerioz va u bilan birga aralash kechadigan kolibakteriozning epizootologiyasi, diagnostikasi, samarali oldini olish hamda qarshi kurashish uchun mahalliy xom ashyolardan foydalanilgan hooda biofaol o'simlik moddalari asosida yangi sinergetik xususiyatli preparatlarni ishlab chiqish va parrandachilik amaliyotiga joriy etish sohada kasallikdan keltiriladigan katta iqtisodiy zararni oldini olishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari va rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand qishloq xo'jalik instituti (hozirgi Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar Universiteti) ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining QXA-10-121 «Turli bioekologik sharoitlarning tovuqlar organizmida yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning kechishiga ta'sirini o'rganish» (2009-2011 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida Samarqand viloyati parrandachilik xo'jaliklari bilan tuzilgan xo'jalik shartnomalari asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Respublikaning ayrim hududlaridagi broyler tovuqchilik xo'jaliklarida eymerioz va kolibakteriozning assotsiativ kechishiga xos epizootologik xususiyatlarni aniqlash, kasallik qo'zg'atuvchilarining xo'jaliklar kesimida tarqalishini baholash hamda kasallikka qarshi kurashish uchun mahalliy xom ashyolar asosida biofaol o'simlik moddalari tarkibli samarali kimyoprofilaktik uslub va vositalarni ishlab chiqish va parrandachilik amaliyotiga joriy etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

broyler tovuqchilik xo'jaliklarida aralash eymerioz va kolibakterioz tarqalishini aniqlash;

aralash eymerioz va kolibakteriozga qarshi ferulen asosida fensid preparati tayyorlashning texnologik reglamentini ishlab chiqish;

tovuqlar eymerioziga qarshi ferulen preparatining optimal qo'llash dozasini aniqlash;

tovuqlar eymerioziga qarshi fensid sinergetik aralashmali preparatning koksidiostatik ta'sirini aniqlash;

fensid sinergetik aralashmali preparatning toksikologik xususiyatlarini o'rganish;

fensid sinergetik aralashmali preparatning tovuqlar kolibakteriozi qo'zg'atuvchisiga qarshi bakteritsid ta'sirini aniqlash;

tovuqlar aralash eymeriozi va kolibakterioziga qarshi fensid premiks preparatning koksidiostatik va bakteriostatik samaradorligini aniqlash; .

tovuqlar eymeriozi va kolibakterioziga qarshi qo'llaniladigan fensid va fensid premiks preparatlarining invaziya intensivligiga ta'sirini o'rganish;

tovuqlar eymeriozi va kolibakteriozining aralash kechishiga qarshi ishlatiladigan fensid va fensid premiks preparatlarining qonning morfologik ko'rsatkichlariga hamda leykotsitar formulasiga ta'sirini aniqlash;

tovuqlar aralash eymerioz va kolibakteriozining kimyoprofilaktikasi bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti Samarqand viloyat Pastdarg'om tumani kesimida joylashgan "Darg'om Parranda Fayz" MChJ, "Mironqul agrozoovetservis" MChJ ilmiy-amaliy markazi, Buxoro viloyati Jondor tumanidagi "Jondor chinor chorva" MChJ parrandachilik xo'jaligi, "Chinor" fermer xo'jaliklarida xususiy, yordamchi va fermer xo'jaliklari fermalarida turli yoshdagi parrandalarning ichki-a'zolari, ichak shilliq qavatidan olingan surtmalar, axlat namunalari va ulardan ajratib olingan ootsistalar, kolibakterioz qo'zg'atuvchilari, qon, ferulen preparati, ferulen asosli sinergetik preparatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti mahalliy xomashyolardan tayyorlangan koksidiostatik va bakteriostatik xususiyatli antibiotikli sinergetik preparatlarning kasalliklarga qarshi kimyoprofilaktik va terapevtik samaradorlik ko'rsatkichlari, jo'jalarning o'sishi, tana vazni, o'rtacha kunlik o'sishi, saqlanuvchanlik ko'rsatkichlari, eymeriozga qarshi indeks (EQI), qonning miqdoriy ko'rsatkichlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda epizootologik, klinik, gematologik, mikroskopik, toksikologik, patologoanatomik, koprologik, antibiotikogramma va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

parrandalarda aralash eymerioz va kolibakteriozning epizootologik xususiyatlari aniqlangan;

tovuqlar eymerioziga qarshi mahalliy xom ashyolardan tayyorlangan ferulen preparatining davolovchi dozasi jo'ja va tovuqlar uchun 100 mg/kg, oldini oluvchi dozasi esa, 30 mg/kg ekanligi aniqlangan;

tovuqlarning eymerioz va kolibakteriozi bilan aralash holda kechishini davolovchi hamda, oldini oluvchi ferulen asosli preparat ishlab chiqilgan;

fensid sinergetik preparatining parrandalar organizmi uchun O'D_{100} foizi 2400 mg/kg, O'D_{50} foizi 2146,4 mg/kg bo'lib, preparatning o'rtacha o'tkir toksik xususiyati aniqlangan;

tovuqlar kolibakterioziga qarshi qo'llanilgan fensid va fensid premiks preparatlarining faolligi E.coli qo'zg'atuvchisiga 1:10 konsentratsiyada bakteritsid, 1:100 konsentratsiyada bakteriostatik ta'sir ko'rsatishi aniqlangan;

eksperimental eymerioz bilan kolibakteriozda fensid va fensid premiks preparati jo'jalar qonining morfologik ko'rsatkichlariga hamda, leykoformulasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyat Pastdarg'om tumani kesimida joylashgan xususiy, yordamchi va fermer xo'jaliklari parrandachilik fermalarida eymerioz bilan kolibakteriozning yoshga oid ravishda birga kechishi, epizootologiyasi va kelib chiqish sabablari aniqlangan va tegishli tavsiyalar berilgan;

tovuqlar eymerioziga qarshi mahalliy xomashyolardan tayyorlangan ferulen preparatining kimyoprofilaktik samaradorligi aniqlangan;

eymerioz va kolibakteriozni aralash kechishiga qarshi fensid sinergetik preparatining organizmda eymeriozga qarshi indeksi (EQI) hamda toksikologik xususiyatlari aniqlangan;

fensid sinergetik preparatining eymeriozning invaziya intensivligi, qonning morfologik ko'rsatkichlari va leykotsitar formulasiga ta'siri aniqlangan;

fensid sinergetik preparatining parranda go'shtining chiqimi va sifatiga ta'sir doirasi o'rganilgan;

respublika tovuqchilik xo'jaliklari sharoitida eymerioz bilan kolibakteriozning parazitotsenozi va patomorfologik o'zgarishlari ilmiy asoslangan;

ishlab chiqarish sharoitida eymerioz va kolibakteriozning assotsiativ kechishida fensid va fensid premiks preparatlari parrandalarning bosh sonini 98-100% saqlab qolish imkonini bergan;

aralash eymerioz va kolibakteriozning kimyoprofilaktikasida eymeriostat, antibiotikli va vitaminli premiks preparatlarining qo'llash dozalari va usullari bo'yicha amaliy tavsiyalar tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Kasalliklarga tashxis qo'yishda zamonaviy uslublardan foydalanilganligi, ularni davolash va oldini olishda mahalliy xomashyolardan samarali davolovchi sinergetik preparatlar yaratilganligi, tajriba davomida olingan amaliy natijalar nazariy asoslar bilan mosligi, o'tkazilgan tajribalar natijalari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti aprobasiya komissiyasi tomonidan birlamchi hujjatlarga ijobiy baho berilganligi, tajribalarning har yili aprobasiya ko'rigidan o'tkazilganligi, ilmiy hisobotlarning muhokama qilinganligi, tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati parrandachilik xo'jaliklarida invazion eymerioz va infeksion kolibakterioz kasalligi bilan aralash kechishining maxsus epizootologik xususiyatlari, parazitotsenozi, kasalliklarning klinik belgilari, patogenezining ilmiy asosida kasalliklarga qarshi mahalliy o'simlik xomashyolaridan biofaol moddalar yaratish nazariyasi asosida ootsistalar reproduksiyasiga, qonning morfologik ko'rsatkichlariga ta'siri hamda preparatlarning toksikologik xususiyatlarini ilmiy asoslash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati fensid sinergetik aralashmali preparat-larni parrandachilik xo'jaliklarida tatbiq etish natijasida parranda bosh sonini saqlab qolish, mahsuodorlik ko'rsatkichlarini va ulardan olinadigan go'sht mahsulotlarining miqdorini, sifatini oshirish evaziga rentabellikning oshishiga erishilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tovuqlar eymeriozi va kolibakteriozining kimyoprofilaktikasida fensid sinergetik aralashmali preparatlarning samaradorligi bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalari asosida:

Tovuqlar eymeriozi va kolibakterioz (enterobiozlar) bilan aralash kechishining samarali kimyoprofilaktikasida fensid sinergetik aralashmali hamda, fensid premiks preparatlarini qo'llash bo'yicha tavsiyanoma chop etilib parrandachilik amaliyotiga tadbiq etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 7-noyabrdagi № 02/23-818-son ma'lumotnomasi). Natijada fensid sinergetik aralashmani 288 mg/kg va fensid premiks preparatini 1000 mg/kg oziqa bilan 8-10 kun davomida berilganda tovuqlarni nafaqat kasalliklardan balki, ularni sog'lomlashtirish evaziga go'sht chiqimi hamda sifatini yaxshilanishiga erishilgan.

Tadqiqot ishlari natijalari asosida Pastdarg'om tumanidagi "Darg'om Parranda Fayz", "Mironqul agrozoovetservis" MChJ ilmiy-amaliy markazi va Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi "Chinor" fermer xo'jaligi, "Jondor chinor chorva" MChJ parrandachilik xo'jaliklarida tajriba guruhidagi tovuqlar fensid sinergitik aralashmali preparatni 288 grammdan 1 tonna yem orqali olganlarida tovuqlarning saqlanuvchanlik darajasi 97,1% ni, o'rtacha 1 bosh tovuqning go'sht chiqimi 2,385 kg ni, 1 qiyosiy nazorat tovuqlarining har 1 bosh chiqimidan 71 grammga yuqori va fensid premiks sinergitik aralashmali preparatni 1000 g/t oziqa bilan 12 kun davomida olganlarida ularning saqlanuvchanlik darajasi 97,3 % ni o'rtacha bir bosh tovuqning go'sht chiqimi 2,404 kgni tashkil qilgan. Fensid va fensid premiks preparatlari qonning morfologik ko'rsatkichlari va leykotsitar formulasiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini inobatga olib bu preparatlarni kelajakda qo'llash tavsiya etilgan. Fensid preparati qo'llanilganda samaradorlik 1 so'm qilingan xarajat uchun 3 so'm 64 tiyinni, Fensid premiks preparati qo'llanilganda esa 3 so'm 63 tiyinni tashkil etgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 7 noyabrdagi № 02/23-818 -son ma'lumotnomasi). Ushbu joriy etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqarish sharoitida kasalliklar assotsiativ kechganda fensid va fensid premiks preparatlarini qo'llab parrandachilik xo'jaliklaridagi tovuqlarning bosh sonini 98-100 % saqlab qolishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari jami 5 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan hamda ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy konferensiyalarda nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta tavsiyanoma nashr qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 111 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **«Kirish»** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustivor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Adabiyot ma'lumotlarining tahlili»** deb nomlangan birinchi bobi to'rt qismga bo'lingan bo'lib, mazkur bobning «Parrandalar eymeriozining biologiyasi va epizootologiyasi» deb nomlangan birinchi qismida eymerioz kasalligining parrandalardagi biologik xususiyatlari va epizootologik holati bayon etilgan. Ushbu bobning «Tovuqlar kolibakteriozi to'g'risida umumiy ma'lumotlar» deb nomlangan ikkinchi qismida tovuqlarda keng tarqalgan bakterial kasallikni etiologiyasi, kasallik manbai va yuqish yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, *Escherichia coli* turiga mansub bakteriyalarning patogenlik omillari, parrandalarda kasallik kechish shakllari, klinik belgilar va epizootologik holatlar bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlil qilingan.

«Kolibakterioz qo'zg'atuvchisiga qarshi qo'llaniladigan antibiotik va dezinfektantlar» deb nomlangan uchinchi qismida *Escherichia coli* ga qarshi zamonaviy antibiotiklar va dezinfeksiyalovchi vositalarning samaradorligi, ularning ta'sir mexanizmi va qo'llanilish tartibi bo'yicha o'rganilgan ilmiy ma'lumotlar tahlili haqida xalqaro va mahalliy tadqiqotlar yoritilgan. «Tovuqlar eymeriozi va kolibakteriozini davolash va oldini olish uslub va vositalari» deb nomlangan to'rtinchi qismda eymerioz va kolibakterioz kasalliklarini davolash va profilaktika qilishda qo'llaniladigan kompleks uslublar va ularning samaradorligi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **«Tadqiqotlar joyi, obyekti va usullari»** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar joyi, obyekti va usullari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Ilmiy tadqiqot ishlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining vivariyasidagi kichik tovuqxonasida, "Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya", "Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish" kafedralari, "Veterinariya ilmiy tadqiqot institutining "Mikrobiologiya" laboratoriyasida, Samarqand viloyati Pastdarg'om tumaniga qarashli "Darg'om parranda fayz" MChJ, "Mironqul agrozoovetservis" MChJ ilmiy-amaliy markazi, Buxoro viloyati Jondor tumanidagi "Jondor chinor chorva" MChJ parrandachilik xo'jaligi, "Chinor" fermer xo'jaliklarida, xususiy, yordamchi va tovuqchilik xo'jaliklarida olib borildi.

Laboratoriya tajribalari uchun 14 kunlik 1840 bosh "Loman LSL klassik" va "ROSS 308" broyler zotiga mansub jo'jalardan foydalanildi.

Tovuqlar eymerioziga qarshi koksidiostatik xususiyatga ega preparatni olish maqsadida *Ferula asso-foetida* o'simligi 10 litrli idishga joylashtirilib, ustiga 70 % rektifikat spirt quyildi va 60-70 kun saqlandi. So'ng spirt bug'latilib, idish tagida hosil bo'lgan och yashil-sarg'ish rangli cho'kma (2-3 g) yig'ib olindi. Preparat samaradorligini baholash uchun Sankt-Peterburgdagi VNIVIP ITIdan olingan *E. acervulina*, *E. maxima* va *E. tenella* koksidiyalari Goryaev sanoq to'rida mos ravishda 250 ming, 15 ming va 40 ming dona/mm^3 sporalangan ootsistalar miqdorida sanalib aralashtirildi. Tajribada 14 kunlik jo'jalardan 10 boshdan iborat 10 ta guruh tuzildi. Birinchi guruh zararlantirilmagan toza nazorat, ikkinchi guruh esa O'D50–75 dozada koksidiyalar bilan zararlantirilgan qiyosiy nazorat bo'lib, ikkala guruh ham preparatsiz ratsionda boqildi. 3-9-guruh jo'jalariga ferulen preparati 20-100 mg/kg oziqa hisobida 8–10 kun davomida berildi, 10-guruhga esa Spektrazuril-T (1 ml/l) 2 kun qo'llandi. Preparatlarning optimal dozasi jo'jalarning saqlanuvchanligi, tirik vazn o'sishi va EQI (200 ball) ko'rsatkichlari asosida, D.I. Porter va S.A. Johnson (1966) hamda M.V. Krilov (1969) uslublari bo'yicha baholandi.

Dissertatsiyaning **"Xususiy tadqiqotlar"** deb nomlangan uchinchi bobida broyler tovuqchilik xo'jaliklarida eymerioz va kolibakterioz kasalliklarining aralash kechishi, ularning tarqalish sabablari hamda yosh, saqlash sharoiti va parvarish tizimi bilan bog'liq epizootologik omillar tahlil qilingan.

Tadqiqotning keyingi bosqichida "Ferulen" preparatining optimal, samarali va xavfsiz dozasi aniqlanib, uni kasallikka qarshi qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan. Shuningdek, Fensid va Fensid premiks sinergetik aralashmalarining eymerioz va kolibakteriozga qarshi profilaktik hamda davolovchi ta'siri baholangan. Jumladan, Fensid preparatining koksidiostatik va bakteriostatik xususiyatlari aniqlangan, toksikologik xavfsizligi baholanib, tovuq organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi isbotlangan. Eymerioz va kolibakteriozning eksperimental aralash shakllarida preparatning klinik, laborator va patomorfologik ko'rsatkichlar bo'yicha samaradorligi, shuningdek invaziya intensivligi va qonning gematologik ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganilgan.

Dissertatsiyaning **3.1-§. "Broyler tovuqchilik xo'jaliklarida eymerioz va kolibakteriozning aralash kechishining epizootologiyasi"** bo'limida olingan natijalarga ko'ra, 1-15 kunlik davrda tekshirilgan 120 bosh nobud bo'lgan jo'jalardan 8 boshida (7,0 %) eymerioz, 12 boshida (10,0 %) eymerioz va kolibakteriozning aralash shakli aniqlangan, 43 bosh (35,8 %) esa boshqa kasalliklar sababli nobud bo'lgan.

16-31 kunlik davrda tekshirilgan 110 bosh tovuqlardan 39 boshida (35,4 %) eymerioz, 46,4 % holatda esa eymerioz va kolibakteriozning birga kechishi qayd etildi.

Boshqa kasalliklar sababli nobud bo'lgan tovuqlar soni 18 boshni tashkil etib, bu 16,3 % ga teng bo'ldi. 32–43 kunlik davrda nobud bo'lgan 72 bosh tovuq patologoanatomik va laboratoriya tekshiruvlardan o'tkazilganda, ularning 28 boshi (38,8 %) eymerioz, 24 boshi (33,3 %) eymerioz va kolibakteriozning aralash kechishi sababli nobud bo'lgani aniqlandi. Qolgan 20 bosh (27,7 %) boshqa kasalliklar hisobiga to'g'ri keldi (1-rasm).



1-rasm. Broyler tovuqchilik xo'jaliklarida eymerioz va kolibakteriozning assotsiativ kechish dinamikasi.

Dissertatsiyaning **3.2-§. "Tovuqlar eymeriozlga qarshi ferulen preparatining optimal dozasini aniqlash"** deb nomlangan bo'limi tadqiqotning ikkinchi bosqichini tashkil etadi.

Tadqiqotlar natijasida tovuqlar eymeriozini chaqiruvchi 9 turdagi eymeriyalar ichidan tovuqchilik xo'jaliklarida asosan 4 turi keng tarqalganligi aniqlangan. Mazkur kasallikning oldini olish va davolashda koksidiostatik preparatlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan respublikamiz hududlarida keng tarqalgan *Ferula* o'simligidan tayyorlangan preparatlarning tovuqlar eymerioziga qarshi samaradorligini o'rganish maqsad qilib qo'yildi.

Tajriba o'tkazish uchun tovuqchilik xo'jaligidan "Loman-LSL klassik" zotiga mansub bir kunlik jo'jalar olib kelinib, kichik tovuqxonaga tushama ustida umumiy gala holida joylashtirildi.

Jo'jalar 14 kunligida tirik vazni o'lchanib, har birida 20 boshdan iborat 10 ta guruh shakllantirildi. Birinchi guruh qiyosiy toza nazorat bo'lib, kasallik qo'zg'atuvchilari bilan zararlantirilmasdan, tajriba oxirigacha preparatsiz toza ratsion asosida boqildi. Ikkinchi guruh jo'jalari tirik vazni o'lchanishi bilan oldindan O'D50–70 dozasi aniqlangan sporalangan koksidiy kulturasi (1 ml suspenziyada *E. acervulina* – 250 ming, *E. maxima* – 15 ming va *E. tenella* – 50 ming dona) shpriszond orqali zobiga 1 ml dan yuborilib zararlantirildi va preparatsiz ratsionda saqlandi.

1- jadval

Ferulen preparatini optimal miqdorini aniqlash

T/r	Guruh nomi	Preparat nomi	Dozasi (mg/kg) oziqa bilan	Jo'jalar bosh soni	Bir bosh jo'janing tajribadan oldingi t/b	Saqlanuvchanlik (%) hisobida	Bir bosh jo'janing tajribadan keyingi t/b	O'sish (%)	EQI 200 ballda
1	Qiyosiy toza nazorat	-	-	20	90	100	231	157,0	200
2	Qiyosiy yuqtirilib davolanmagan nazorat	-	-	20	91	40	112	23,0	55,0
3	Tajriba	Ferulen	20	20	90	70	212	135,5	155,0
4	Tajriba	Ferulen	30	20	90	90	215	139,0	178,0
5	Tajriba	Ferulen	40	20	91	100	220	142,0	190,4
6	Tajriba	Ferulen	50	20	91	100	221	143,0	191,1
7	Tajriba	Ferulen	60	20	91	100	219	141,0	190,0
8	Tajriba	Ferulen	80	20	91	100	218	139,5	189,0
9	Tajriba	Ferulen	100	20	90	100	217	138,5	188,2
10	Tajriba	Spektrazuril-T	1ml/l suv bilan	20	90	100	216	137,4	187,5

Eslatma: EQI 200 ballda hisoblanadi

Qolgan 8 ta tajriba guruhidagi jo'jalar koksidiy kulturasi bilan zararlantirilib, 8–10 kun davomida oziqa orqali turli dozadagi preparatlar berildi.

Jumladan, ferulen preparati 20, 30, 40, 50, 60, 80 va 100 mg/kg oziqa hisobida qo'llanildi, 10-tajriba guruhiga esa zararlantirilgach, 2 kun davomida Spektrazuril-T preparati 1 ml/l suv orqali ichirildi. Ferulen preparatining optimal dozasi jo'jalarning saqlanuvchanligi, tajriba oxirida o'rtacha tirik vazn o'sishi va eymeriozga qarshi indeksi (EQI) ko'rsatkichlari asosida baholandi (1-jadval).

Dissertatsiyaning **3.3-§. “Parrandalarning eksperimental eymeriozi va kolibakteriozining assotsiativ kechishida fensid premiks preparatining samaradorligi”** deb nomlangan bo‘limida mahalliy xomashyo asosida ferulen negizida tayyorlangan fensid sinergetik aralashmali preparat asosida vitamin, mineral va aminokislotalar bilan boyitilgan premiks ishlab chiqildi. 1,0 kg fensid premiks tarkibi: fensid – 288 g, U vitamini – 0,003 mg/kg, K vitamini – 0,4 mg/kg, santoxin va bug‘doy kepagi – 702 g dan iborat ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Fensid premiks preparatining eymerioz va kolibakteriozning aralash kechishiga qarshi samaradorligini o‘rganish maqsadida bir kunlik “Loman LSL klassik” zotiga mansub 100 bosh jo‘jada tajriba o‘tkazildi.

Jo‘jalar kichik tovuqxonaga tushama ustida umumiy gala holida joylashtirildi. Tajribada 1 ml koksidiy kulturasi (*E. acervulina* – 125 000, *E. maxima* – 8 000, *E. tenella* – 25 000) va *E. coli* (0,3 ml) qorin bo‘shlig‘iga yuborilib eksperimental zararlantirish amalga oshirildi. Preparatlarning samaradorligi jo‘jalarning saqlanuvchanligi, tajriba oxirida o‘rtacha tirik vazn o‘sishi hamda eymeriozga qarshi indeksi (EQI) asosida baholandi. Laboratoriya tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, zararlantirilib davolanmagan ikkinchi qiyosiy nazorat guruhida saqlanuvchanlik 30 %, o‘rtacha tirik vazn o‘sishi 22,1 % va EQI 44,0 ballni tashkil etdi.

Fensid premiks qo‘llangan 3-tajriba guruhida kasallikning klinik belgilari kuzatilmasdan saqlanuvchanlik 100 %, tirik vazn o‘sishi 136,0 % va EQI 185,5 ballga teng bo‘ldi. 4-tajriba guruhida fensid premiks 1000 mg/kg oziqa dozada berilganda, tirik vazn o‘sishi 138,0 %, EQI esa 187,0 ballni tashkil etdi. Spektril-C va Spektrazuril-T preparatlari qo‘llangan 5-tajriba guruhida tirik vazn o‘sishi 131,5 %, EQI 183,0 ballga teng bo‘ldi (2-jadval).

2-jadval

Jo‘jalarning eksperimental eymeriozi va kolibakteriozining aralash kechishiga qarshi qo‘llanilgan preparatlarning samaradorligi

T/r	Guruh nomi	Preparat nomi	Doza mg/kg	Jo‘jalar bosh soni	Jo‘janig tajribadan oodingi tirik vazni (g)	Saqlanuvchanlik %)	Jo‘janing tajribadan keyingi tirik vazni (g)	Tirik vaznining o‘sishi (%)	EQI (200) ball
1	Qiyosiy sog‘lom intakt	-	-	20	119	100	308,0	159,0	200
2	Qiyosiy nazorat yuqtirilib davolanmagan	-	-	20	123	30,0	150,3	22,1	44,0
3	Tajriba	Fensid	288	20	120	100	283,0	136,0	185,5
4	Tajriba	Fensid premiks	1000	20	121	100	288,0	138,0	187,0
5	Tajriba	Spek ril-C Spektra zuril-T	1 ml/2l suv bilan 5 kun 1 ml/l Suv bilan 2 kun	20	122	100	282,5	131,5	183,0

Preparatlarning eymerioz qo‘zg‘atuvchisiga qarshi himoya ta’sirini aniqlash maqsadida tajribaning 21-kunida barcha guruh jo‘jalari 2 O‘D100 dozadagi sporalangan ootsistalar bilan shpris-zond orqali qayta zararlantirildi.

Natijada birinchi guruhda eymeriozga xos klinik belgilar kuzatilib, saqlanuvchanlik 15,0 % ni tashkil etdi. Qolgan 2-5-tajriba guruhlarida esa klinik alomatlar qayd etilmadi va saqlanuvchanlik 100 % darajada saqlanib qoldi.

Dissertatsiyaning **3.4-§. "Tovuqlar eymerioziga qarshi fensid sinergetik aralashmali preparatning koksidiostatik ta'sirini aniqlash"** deb nomlangan bo'limida laboratoriya sharoitida tajribalar o'tkazildi.

Tadqiqot uchun "Darg'om Parranda Fayz" parrandachilik xo'jaligidan "Loman LSL klassik" zotiga mansub 100 bosh bir kunlik jo'jalar olib kelinib, tushama ustida umumiy gala holida saqlandi. Jo'jalar 14 kunligida tirik vazni o'lchanib, har birida 20 boshdan iborat 5 ta guruhga ajratildi. Birinchi guruh qiyosiy sog'lom (intakt) nazorat bo'lib xizmat qildi. Ikkinchi guruh jo'jalari OD50–75 dozada titrlangan sporalangan ootsistalar bilan shpris-zond orqali 1,0 ml dan zobiga yuborilib zararlantirildi va tajriba oxirigacha preparatsiz, xo'jalik ratsioni asosida boqildi. Uchinchi tajriba guruhidagi jo'jalar eymerioz qo'zg'atuvchilari bilan zararlantirilgach, fensid sinergetik aralashmali preparat 288 mg/kg oziqa hisobida 8–10 kun davomida berildi. To'rtinchi tajriba guruhiga zararlantirilgandan so'ng 5 kun davomida Spektril-C preparati 1 ml/2 l suv bilan uzluksiz ichirildi. Beshinchi tajriba guruhidagi jo'jalarga esa Spektrazuril-T koksidiostatik preparati 1 ml/l suv dozada kuniga ikki marta, jami 2 kun davomida qo'llanildi.

Tajriba davomida eymerioz bilan zararlantirilib, turli koksidiostatik preparatlar bilan davolangan jo'jalarda kasallikning klinik alomatlari kuzatilmadi va ularning saqlanuvchanligi 100 % ni tashkil etdi.

Xususan, uchinchi tajriba guruhida fensid sinergetik aralashmali preparat 288 mg/kg oziqa dozada berilganda, tajriba yakunida saqlanuvchanlik 100 %, o'rtacha tirik vazn o'sishi 49,0 % va EQI 193,3 ballga teng bo'ldi.

3-jadval

Fensid sinergetik aralashmali preparatining kasallik qo'zg'atuvchilariga qarshi ta'sirini o'rganish

T/r	Guruhlar nomi	Preparat nomi	Dozasi (mg/ml)	Jo'jalarbosh soni	Tajriba boshlanishida bir bosh jo'janing o'rtacha tirik vazni (g)	Saqlanuvchanlik (%)	Tajriba nihoyasida bir bosh jo'janing o'rtacha tirik vazni (g)	Tirik vaznning o'sishi (%)	EQI (200 ball)
1	Qiyosiy toza nazorat	-	-	20	261	100	398	52,5	200
2	Qiyosiy zararlantirilib, davolanmagan nazorat	-	-	20	260	35,0	291	12,0	58,0
3	Tajriba	Fensid	288	20	259	100	385	49,0	193,3
4	Tajriba	Spektril-C	1	20	260	100	381	46,5	188,5
5	Tajriba	Spektrazuril-T	1	20	258	100	380	47,2	190,0

To'rtinchi tajriba guruhida Spektril-C qo'llanilganda o'rtacha tirik vazn o'sishi 46,6 %, EQI 188,5 ballni tashkil etdi. Beshinchi tajriba guruhida Spektrazuril-T koksidiostatigi qo'llanilganda esa o'rtacha tirik vazn o'sishi 47,2 %, EQI 190,0 ballga teng bo'ldi (3-jadval).

Fensid sinergetik aralashmali preparatning toksikologik xususiyatlari tadqiqotida "Loman LSL Klassik" zotiga mansub 15 kunlik 36 bosh xo'roz jinsli jo'jalar olindi. Jo'jalar 6 tadan 6 guruhga taqsimlanib, kasallik qo'zg'atuvchisining O'D50 dozasini aniqlash maqsadida preparatni 3 % li karboksimetilsellyuloza (KMS) eritmasi bilan aralashtirib zobga shpris-zond orqali quyidagi dozalarda: 400, 800, 1200, 1600, 2000 va 2400 mg/kg tirik vaznga nisbatan berildi. Yettinchi qiyosiy nazorat guruhiga esa, faqat 3 % KMS yuborildi. Shu orqali preparatning toksikologik xavfsizligi baholandi.

Fensid sinergetik aralashmali preparatning kolibakteriozga qarshi faolligi tadqiqoti "Darg'om Parranda Fayz" tovuqchilik xo'jaligida o'tkazildi.

Bir kunlik xo'roz jinsli 100 bosh "Loman LSL klassik" zotiga mansub jo'jalar uy sharoitida kichik tovuqxona tashkil etilib, to'shama ustida umumiy gala holida saqlandi. Jo'jalar 14 kunligida tirik vazni o'lchanib, har birida 20 boshdan iborat 5 ta guruhga ajratildi (tirik vazn farqi ±2 g). Eksperimental kolibakterioz sharoitida fensid, fensid premiks hamda Spektril-C va Spektrazuril-T preparatlari qo'llanildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, fensid sinergetik aralashmani olgan tovuqlarda saqlanuvchanlik 100 % bo'lib, o'rtacha bir bosh tirik vaznining o'sishi 146,3 % ga teng bo'ldi. 3-4-tajriba guruhida fensid premiksni kasallik qo'zg'atuvchilari bilan zararlantirilgach 8-10 kun davomida 1000 mg/kg oziqa bilan qabul qilgan tovuqlarda saqlanuvchanlik ham 100 % bo'lib, tirik vazn o'sishi 149,4 % ni tashkil etdi (4-jadval).

4-jadval

Fensid sinergetik aralashmali preparatini tovuqlar kolibakterioziga ta'sirini o'rganish

T/r	Guruh nomi	Preparat nomi	Doza mg/kg	Jo'jalar bosh soni	Jo'janing tajribadan oodingi tirik vazni (g)	Saqlanuvchanlik (%)	Jo'janing tajribadan keyingi tirik vazni (g)	Tirik vaznining oshishi (%)
1	Qiyosiy toza nazorat	-	-	20	120	100	310,0	158,3
2	Qiyosiy yuqtirilib davolanmagan	-	-	20	120	35,0	149,5	24,5
3	Tajriba	Fensid	288	20	121	100	298,0	146,3
4	Tajriba	Fensid premiks	1000	20	122	100	299,5	149,4
5	Tajriba	Spektril-S Spektra zuril-T	1 ml/2l 5 kun, 1ml/l suv bilan 2 kun	20	120	100	291,4	143,0

5-tajriba guruhida kasallik qo'zg'atuvchisi bilan zararlangan tovuqlar Spektril-C (1 ml/2 l, 4–5 kun) va Spektrazuril-T (1 ml/l, 2 kun) bilan davolanganida saqlanuvchanlik 100 % va o'rtacha tirik vazn o'sishi 143,0 % ga teng bo'ldi.

Ikkinchi qiyosiy, davolanmagan guruhda saqlanuvchanlik 35,0 %, o'rtacha tirik vazn o'sishi 24,5 % ni tashkil etdi. Birinchi qiyosiy intakt nazorat guruhida saqlanuvchanlik 100 %, tirik vazn o'sishi 158,3 % bo'ldi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, fensid va fensid premiks preparatlari tovuqlarni to'liq kolibakteriozdan himoya qiladi.

Ferulen asosida fensid sinergetik aralashmali preparatdan vitamin, mineral va aminokislotalar qo'shilgan yangi fensid premiks tayyorlandi. 1 kg tarkibi: fensid - 288 mg, U vitamini - 0,003 mg, K vitamini - 0,4 mg, santoxin va qolgan qismi bug'doy kepagidan tashkil topgan.

Yangi premiksning terapevtik va kimyoprofilaktik samaradorligini baholash maqsadida bir kunlik "Loman LSL klassik" zotiga mansub 100 bosh jo'jalarda tajriba o'tkazildi. Jo'jalar 14 kunligida har biri 20 boshdan iborat 5 ta guruhga ajratildi:

